



AGRAR SOHA VA DEHQONCHILIK TERMINLARINING KONTSEPTUAL MUNOSABATI

Bo'riyev Jamshid Xudoyberdiyevich

Termiz davlat universiteti O'zbek tili va adabiyoti kafedrasasi o'qituvchisi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.7993116>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 25-May 2023 yil
Ma'qullandi: 28-May 2023 yil
Nashr qilindi: 31-May 2023 yil

KEY WORDS

dehqonchilik, agrar soha, qishloq xo'jaligi, poliz, chorvachilik

ABSTRACT

Ushbu maqolada qishloq xo'jaligiga oid terminlarning paydo bo'lishi va ishlatilishi haqida ma'lumotlar berib o'tilgan. Bugungi kunda O'zbekistonda tub agrar islohotlar o'tkazilib, agrar soha jadal rivojlanmoqda. Agrar sohada mulkiy munosabatlar qonuniy asoslarining yaratilganligi bu jarayonning kafolatli garoviga aylandi.

Agrar sohada mulkiy munosabatlar qonuniy asoslarining yaratilganligi bu jarayonning kafolatli garoviga aylandi. Xususan, "Er to'g'risida" (1990), "O'zbekistonda tadbirkorlik to'g'risida" (1991), "Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida" (1991), "Ijara to'g'risida" (1991), "Dehqon xo'jaligi to'g'risida" (1992), "Xo'jalik jamiyatlari va shirkatlari to'g'risida" (1992), "Er solig'i to'g'risida" (1993), "Qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkat xo'jaligi) to'g'risida", "Dehqon xo'jaligi to'g'risida", "Fermer xo'jaligi to'g'risida"gi qonunlari va O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksi qabul qilindi. Buning natijasida yuz bergan keng qamrovli ijtimoiy o'zgarishlar milliy lisoniy ongda ham ulkan yangilanishlarni vujudga keltirdi. Ijtimoiy hayot, ijtimoiy tafakkur va til yaxlitligi borliqning lisoniy tasnifi borasida muhim o'zgarishlarni shakllantirdi. Ayniqsa, sohada olib borilayotgan agrar islohotlar, agrar munosabatlarning yangi shakllari agrar terminologiyani maxsus tizim sifatida o'rganish, xalqaro agrar munosabat va aloqalarning rivojlanayotganligi bundagi asosiy omil bo'lgan lisoniy ifodalarga ham alohida e'tibor qaratishni taqozo qilmoqda.

O'zbek tilida agrar sohani bildiruvchi tushunchalarning lisoniy ifodasi turli shakliy-struktur, semantik, genetik, derivatsion xususiyatlarga ega bo'lib, alohida mazmuniy maydonni tashkil etadi. Bu mazmuniy maydon empirik nuqtai nazardan juda murakkab, nazariy asosda munosabatda bo'linsa, juda mustahkam va anchayin sodda kognitiv mohiyat va strukturaga egaligi bilan xarakterlanadi. Qiyoslanayotgan tilda ham bu xususiyat xos bo'lib, tadqiqotimiz mobaynida bunga amin bo'ldik.

Ma'lumki, agrar soha terminlari tizimi qishloq xo'jaligi mavzuyiy to'dasining tarkibiy qismidir. Bu maydon, avvalo, to'rt mazmuniy maydonni tashkil etadi:

- dehqonchilik; chorvachilik; parrandachilik; baliqchilik.
- Dehqonchilik mazmuniy maydoni, o'z o'rnida, yana ichki guruh (leksik-semantik)larga bo'linadi:
- dalachilik; - sabzavotchilik; polizchilik; bog'dorchilik; - o'rmonchilik (o'rmon xo'jaligi).

Boshqa mavzuviy maydonlar ham, o'z navbatida, ichki guruhlardan tashkil topadi yoki ichki guruhlariga bo'linadi. Masalan, chorvachilik:

- qoramolchilik; qo'ychilik; yilqichilik; cho'chqachilik; parrandachilik; asalarichilik; quyonchilik kabi lug'aviy-ma'noviy guruhlardan iborat bo'ladi.

Bu lug'aviy-ma'noviy guruhlarining ichki bo'linishlari ma'lum o'simlik turi, hayvon tipigacha bo'linishi mumkin. Xususan, qoramolchilik tuyachilik, yilqichilik, sigirchilik; qo'ychilik va echkichilik kabi. Albatta, bunda, tasnif izchilligiga amal qilish maqsadida sigirchilik atamasi qo'llandi. Zero, o'zbek tilida qoramol termini, bir tomondan, ushoq mol terminiga zid ravishda yirik, katta uy hayvonlarini ifodalash uchun qo'llangan bo'lib, u yuqoridagi tasnifda umuman yirik mollarni ham, uning bir turi bo'lgan sigir (sog'in sigir, buzoq, ho'kiz, buqa kabilar)ni ham ifodalaydi.

Dehqonchilik lug'aviy-mazmuniy maydoni o'simlikning turiga qarab, ko'plab ichki lug'aviy-ma'noviy guruhlarini tashkil qilishini ko'rdik. Bu guruhlar o'simlikning turiga qarab muayyan tarmoqlarga bo'linadi. Masalan, polizchilik lug'aviy-ma'noviy guruhi:

- qovunchilik;
- qovoqchilik;
- ko'katchilik kabi.

Dehqonchilik lug'aviy-mazmuniy maydonini birlashtiruvchi omil uning bevosita yer va o'simlik bilan bog'liqligidir. Demak, ushbu maydonga kiruvchi barcha leksik birliklar semantik strukturasi yer leksemasi ma'nosining "siquq" holatdagi ko'rinishi birlashtiruvchi sema (ma'no bo'lakchasi) vazifasini bajaradi. To'g'ri, chorvachilik, baliqchilik uchun ham ishlab chiqarish vositasi yer hisoblanadi. Ammo o'simliklardagi turg'unlik holati hayvonlardagi harakatlilikdan farq qilib, muayyan yer bilan bog'liq bo'lganligi semantik strukturadagi yer unsurining ijtimoiy ongda "bo'rtib turishi"ni keltirib chiqargan. Bu esa dehqonchilik mazmuniy maydonida "er" unsurining chorvachilik va baliqchilik mazmuniy maydonidagi "er" unsurining faolligini ta'minlagan. Chorvachilik uchun yer tarkibidagi emas, balki yerdan unib chiqqan mahsulot oziq vazifasini bajaradi. Yerning hayvonga munosabati ozuqadan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Parrandachilik haqida ham shunday deyish mumkin.

Baliqchilik sohasining yer bilan bog'liqligi suv orqali. Shu boisdan baliqchilik uchun birlamchi ishlab chiqarish vositasi suvdur. Shunga ko'ra, "suv" unsuri "baliqchilik" mazmuniy maydoni uchun birlashtiruvchi unsur hisoblanadi.

Demak, "chorvachilik" va "parrandachilik" mazmuniy maydoni uchun "er mahsulotlari bilan oziqlanish", dehqonchilik mazmuniy maydoni uchun "erda o'sish", "baliqchilik" mazmuniy maydoni uchun "suvda yashash" ma'noviy unsurlari birlashtiruvchi vositalar hisoblanadi.

Umuman olganda:

- a) er bilan bog'liq soha: chorvachilik, dehqonchilik, parrandachilik;
- b) suv bilan bog'liq soha: baliqchilik.

Ko'rilganidek, yer bilan bog'liq sohalar bog'liqlikning darajasi va bevosita/bilvositaligi bilan farqlanadi.

Yer bilan bevosita bog'liq soha bo'lgan – dehqonchilik zamonaviy terminologiyada agrar soha tarkibli termini bilan nomlanadi. Albatta, agrar soha va dehqonchilik ifodalari bir qarashda variant terminlardek tasavvur uyg'otsa-da, ular orasidagi farqni lisoniy ong ham tafakkur bilan bog'liq ravishda farqlaydi.

Ma'lumki, o'zbek tilida agr(a/o) boshlanmasi asosida tashkil topgan ko'plab terminlar mavjud: agrar, agrar islohot, agrar masala, agrar tanglik, agrobiznes, agrobiologik, agrobiologiya, agrobiotsenoz, agrogidrologiya, agroiklim xaritasi, agroiklimiy rayonlashtirish, agroiklimshunoslik, agroirrigatsion qatlam, agrokimyo, agrokimyo laboratoriyasi, agrokimyo xizmati, agrokimyoviy tahlil, agrokimyoviy xaritagamma, agromelioratsiya, agrometeorologik byulleten, agrometeorologik yilnoma, agrometeorologik monitoring, agrometeorologik omillar, agrometeorologik xizmat ko'rsatish, agrometeorologiya, agrometeorologiya, agrometeorologiya posti, agrometeorologiya stantsiyasi, agronom, agronomik, agronomik rudalar, agronomiya, agronomlik, agrosanoat, agrosanoat integratsiyasi, agrosanoat majmui, agrotexnik, agrotexnik himoya usuli, agrotexnik brakeraj, agrotexnika, agrotexnologiya, agrotuproq, agrotuproq rayonlashtirish, agro'rmon melioratsiyasi, agrofizika, agrofirma, agrofon, agroelektronika kabi. Ulardan bir qismi 5 jildli "O'zbek tilining izohli lug'ati"da izohlangan: agrar, agro-, agrobiologik, agrobiologiya, agrokimyo, agromelioratsiya, agrometeorologiya, agronom, agronomik, agronomiya, agronomlik, agrosanoat, agrotexnik, agrotexnik, agrotexnika, agrofizika kabilar .

Izohlardan ma'lum bo'ladiki, agr(a/o) komponentli birliklar yer bilan bevosita bog'liq bo'lgan mazkur sohaga ilmiy yondashuvni ifodalaydi. Ushbu komponent ko'zguvida kasb-hunar leksik tizimi va ilmiy terminologiya farqini ko'ramiz. Umuman olganda, dehqonchilik ifodalari "xalq so'zlari" umumiy belgisiga ega bo'lsa, agr(a/o) komponentli birliklar "termin" umumiy mohiyati bilan xarakterlanadi.

Yerga hosil olish uchun ishlov berish hodisasi va jarayoni unga munosabat nuqtai nazaridan ko'p qirrali hodisa. Bu, bir tomondan, an'anaviy mehnat jarayoni bo'lsa, ikkinchi tomondan, ilmiy yondashuv ob'ektidir. Birinchi holatda, bu jarayonda kishilarning ko'p asrlik tajribalari, tabiat haqidagi ajdodlardan o'zlashtirilgan amaliy bilimlarga tayanilsa, ikkinchi holat, maxsus metodlar va vositalar yordamida olib boriladigan tadqiq jarayoni bilan bog'liq sistemalashtirilgan faoliyatni o'zida aks ettiradi. Ana shu ikki holat orasidagi farqni lisoniy ong ifodalab, bir jarayonga ikki xil munosabatni shakllantiradi.

Dehqonchilik so'zi va tushunchasi ham ayrim hollarda agrar soha ifodasi bilan variantdoshlik kasb etadi. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da bu o'zining yorqin ifodasiga ega:

"DEHQONChILIK 1 Qishloq xo'jaligining yerga ekin ekib, qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish bilan shug'ullanuvchi sohasi, ziroatchilik. Qadimdan oq Amudaryo, Zarafshon, Sirdaryo kabi obi hayot sohillarida, go'zal Farg'ona, Toshkent, Buxoro va Xorazmning ibtidoiy tabiati bag'rida dehqonchilik keng tarmoq otgan edi. K.Mahmudov, Qiziqarli pazandalik.

2 Ekin-tikin bilan shug'ullanish kasbi, mashg'uloti. Dehqonchilik qilmoq. Dehqonchilik — chilik-chilik, Bo'lmasa, quruqchilik. Maqol. Yoz faslida dehqonchilik qiladi, sahar ketib, kech keladi. M.Ismoilij, Farg'ona t.o.

3 Ekinzor, ekin dalasi. Anovi pastlikda dehqonchiligimiz bor. Bemalol, hamma narsa o'zimizdan chiqadi. Oydin, Kelin o'g'il tug'ibdi."

Izohdagi birinchi ma'no ikki qirrali bo'lib, u o'zida ham umumiste'mol, ham terminologik mohiyatga egaligi bilan xarakterlanadi. Undagi ikki ma'no bo'lakchasi ("qishloq xo'jaligiga xos", "erga ekin ekib, qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish bilan shug'ullanuvchi soha")dan birinchisi ko'proq terminologik xususiyatga ega. Uning asosan ilmiy adabiyotlarda qo'llanishi, umumiste'molda qo'llanish doirasining cheklanganligi fikrimizning dalilidir. Dehqon, dehqonbop, dehqonparvar, dehqonsifat, dehqonchasiga so'zlari ma'no-mohiyati bilan

munosabatda dehqonchilik so'zi umumiste'mol mohiyatini namoyon qiladi.

Yuqorida dehqonchilik va agrar soha terminlarining o'zaro munosabati leksik-semantik nuqtai nazardan qaraldi. Quyida esa ular orasidagi o'xshash va farqli jihatlarni kognitiv aspektda ko'rib o'tishga harakat qilamiz. Kognitiv kontseptlarni ularning freymlarini aniqlash asosida tahlil qilish yaxshi samara beradi.

Ma'lumki, freym asosidagi tahlil kontseptning serqirraligini ko'rsatuvchi, uni barcha qirralari majmuida qamrab oluvchi majmuaviy tahlil usulidir. Har bir freymda kognitiv ob'ektning ma'lum bir qirradi namoyon bo'ladi. Dehqonchilik kontsepti quyidagi freymlar majmuidan iborat.

Dehqonchilik – qishloq hayotining ajralmas qismi.

Dehqonchilik – yerdan hosil oluvchi soha.

Dehqonchilik – asosan, sug'orish bilan ish ko'ruvchi soha.

Dehqonchilik – uzoq tarixga ega soha.

Dehqonchilik – o'tmish tajribalariga asoslangan soha.

Dehqonchilik – chorvachilik, baliqchilik va parrandachilikka yondosh soha.

Bu freymlar birlashib, o'zbek milliy ongidagi dehqonchilik kontseptining mohiyatini tashkil qiladi: "Dehqonchilik qishloq hayotining o'tmish tajribalariga asoslangan, yerdan, asosan, sug'orish bilan hosil oluvchi, ajralmas xo'jalik sohasi."

Agrar soha ham dehqonchilik kontseptiga o'xshash va undan farqlanuvchi jihatlarga ega bo'lib, farqli xususiyatlar uning ayri-ayri mohiyatga egaligini ko'rsatadi:

Agrar soha – qishloq xo'jaligi.

Agrar soha – yerdan hosil oluvchi soha.

Agrar soha – davlat va xususiy sektor.

Agrar soha – sanoatga zid turuvchi soha.

Agrar soha – asosan, sug'orish bilan ish ko'ruvchi soha.

Agrar soha – tarixan dehqonchilik ko'rinishida mavjud bo'lgan soha.

Agrar soha – texnikalashgan soha.

Agrar soha – umumiy infrastrukturaga ega soha.

Agrar soha – fan yutuqlari muttasil tatbiq qilib boriladigan soha.

Yuqoridagilarga tayanib, agrar sohaning kontseptual mohiyatini tavsiflashga harakat qilamiz: "agrar soha qishloq xo'jaligi (tor ma'noda, uning yerdan hosil oluvchi) sohasi bo'lib, asosan, sug'orish bilan ish ko'ruvchi, davlat va xususiy mulk sifatida mavjud bo'lgan, maxsus infrastrukturaga ega, sanoat bilan yondosh qaraluvchi, ilmiy asoslangan holda rivojlantiriluvchi ishlab chiqarish sektoridir". Bunda kontseptlararo farq birining umumxalq, ikkinchisining ilmiy mohiyatga egaligi bilangina emas, balki birinchisining umumxalq, ikkinchisining ko'proq ilmiy tatbiq bilan bog'liqligidan ham kelib chiqadi. Yuqorida sanalgan agr(a/o) komponentli qator terminlar ham shundan dalolat beradi. Agrar soha nafaqat shunchaki yerga ishlov berish va hosil olishni, balki ilmiy asosda yondashuvni taqozo qiladi. Shu boisdan agr(a/o)- elementli barcha terminlar ifodalovchi hodisalar agrar sohaning tarkibiy qismlari hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Менглиев Б. Тил илми: зарурият ва анъанавийлик // Маърифат, 2013 йил 13 май.
2. Каримов И.А. Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. – Тошкент: Ўзбекистон, 1996. – Б. 34.
3. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. 1-том. – Тошкент: "Ўзбекистон миллий

энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2000. – Б. 116.

4. Jamshid, Bo‘riyev. "YOZUVCHI ERKIN AZAMNING OGZAKI NUTQQA XOS LEKSIK VA GRAMMATIK VOSITALARDAN USLUBIY FOYDALANISH MAHORATI." Eurasian Journal of Academic Research 2.1 (2022): 169-174.

5. Jamshid, Buriyev. "EXPRESSION OF DESCRIPTIVE ORAL UNITS IN THE WORKS OF ERKIN AZAM." Archive of Conferences. 2021.

6. Farogat, Nurmuradova, and Buriyev Jamshid. "THE TRAGEDY OF FREEDOM." Archive of Conferences. Vol. 25. No. 1. 2021.

7. Jamshid, Bo‘riyev. "OZBEK TILIDA OGZAKI NUTQ USLUBI TIPOLOGIYASI. ERKIN A'ZAM ASARLARI MISOLIDA." INTERNATIONAL JOURNAL OF DISCOURSE ON INNOVATION, INTEGRATION AND EDUCATION 1.1 (2020): 23-25

